

UO'K(UDC, YDK): 7.075.1

SHAYBONIYLAR DAVRI QO'LYOZMA SAN'ATINI O'RGANISHDA FRANSIS RICHARDNING KONTEKSTUAL METODOLOGIYASI²⁵

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Qo'qon universiteti Andijon filiali,

Tillarni o'qitish kafedrasini mudiri,

E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmail.com

OrcidID: 0000-0002-6187-8090

ANNOTATSIYA	KALIT SO'ZLAR
Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda rivojlangan qo'lyozma kitob san'atini o'rganishga doir fransuz sharqshunosi Fransis Richard tomonidan qo'llangan tadqiqot metodologiyasi tahlil etiladi. Muallifning „Le Siècle des Shibaniides“ nomli fundamental monografiyasi asosida uning qo'lyozma kitoblarni tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstda o'rganishdagi yondashuvlari, shuningdek, qo'lyozmalardagi xattotlik va miniatyura san'atiga bergan estetik hamda semiotik talqinlari o'ziga xos tahliliy asosda ko'rib chiqiladi. Richard tadqiqotlarida qo'lyozma materiallarini faqat badiiy obyekt sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy kontekstda yaratilgan madaniy artefakt sifatida baholaydi. Shuningdek, maqolada Richardning yondashuvi qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatib o'tiladi. Chunki u qo'lyozmalarni boshqa madaniyatlar, jumladan, Eron, Hindiston va Usmonlilar davridagi kitob san'ati bilan qiyosiy tahlil qiladi. Bu esa Shayboniylar davrining badiiy merosini xalqaro miqyosda tadqiq qilishga imkon beradi. Mazkur yondashuv Markaziy Osiyo qo'lyozma madaniyati tarixini yangicha ilmiy konseptual asosda qayta ko'rib chiqishga xizmat qiladi va bu davr san'atini faqat estetik emas, balki ideologik va sotsial kontekstda ham chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi. Maqola yakunida Fransis Richardning tadqiqotlari qo'lyozma san'ati, adabiy meros va madaniy homiylik tizimlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishdagi ilmiy ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, uning yondashuvi qiyosiy adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va tarixiy manbashunoslik sohalarida samarali qo'llanishi mumkinligi alohida ta'kidlanadi.	Shayboniylar davri; qo'lyozma san'ati; Fransis Richard; qiyosiy adabiyotshunoslik; xattotlik; miniatyura; ramz; metodologiya.

Received: June 3, 2025

Accepted: July 18, 2025

Available online:
September 3, 2025

²⁵**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Nasirdinova Y. Shayboniylar davri qo'lyozma san'atini o'rganishda Fransis Richardning kontekstual metodologiyasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 3(7) — B. 370-385.

THE CONTEXTUAL APPROACH OF FRANCIS RICHARD IN THE ANALYSIS OF SHAYBANID PERIOD MANUSCRIPT ART

Nasirdinova Yorkinoy Abdumukhtarovna

PhD in Philological Sciences

Head of the Department of Language Teaching,

Andijan Branch of Kokand University

E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmail.com

Orcid ID: 0000-0002-6187-8090

ABSTRACT

This article analyzes the research methodology employed by French orientalist Francis Richard in studying the manuscript book art that flourished in Central Asia during the Shaybanid dynasty's rule. Based on the author's fundamental monograph "Le Siècle des Shibanides," his approaches to examining manuscripts in historical, cultural, and political contexts, as well as his aesthetic and semiotic interpretations of calligraphy and miniature art in manuscripts, are explored through a distinctive analytical framework. In his research, Richard evaluates manuscript materials not only as artistic objects but also as cultural artifacts created within a socio-political context.

The article also highlights that Richard's approach is significant from the perspective of comparative literary studies. He conducts a comparative analysis of manuscripts with the book art of other cultures, including Iran, India, and the Ottoman period.

The article concludes by emphasizing the scholarly significance of Francis Richard's research in unveiling the complex relationships between manuscript art, literary heritage, and cultural patronage systems. Furthermore, it underscores that his approach can be effectively applied in the fields of comparative literary studies, art history, and historical source studies.

KEY WORDS

Shaybanid era; manuscript art; Francis Richard; comparative literary studies; calligraphy; miniature painting; symbolism; methodology.

КОНТЕКСТУАЛЬНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ФРАНСИСА РИШАРА В ИЗУЧЕНИИ ИСКУССТВА РУКОПИСЕЙ ЭПОХИ ШАЙБАНИДОВ

Насирдинова Ёркиной Абдумухтаровна

Кандидат филологических наук (PhD)

Заведующая кафедрой преподавания языков

Андижанский филиал Кокандского университета

e-mail: nasirdinovayorkinoy@gmail.com

Orcid ID: 0000-0002-6187-8090

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье анализируется методология исследования, примененная французским востоковедом Франсисом Ришаром для изучения искусства рукописной книги, развивавшегося в Центральной Азии в период правления династии Шейбанидов. На основе фундаментальной монографии автора “Le Siècle des Shibānides” рассматриваются его подходы к изучению рукописных книг в историческом, культурном и политическом контексте, а также предложенные французским ученым на основе использования уникальной методологии эстетические и семиотические интерпретации каллиграфического искусства и миниатюры в рукописях. В своих исследованиях Ришар оценивает рукописные материалы не только как художественные объекты, но и как культурные артефакты, созданные в определенном социально-политическом контексте. В статье также отмечается, что подход Ришара имеет важное значение с точки зрения сравнительного литературоведения. Это обусловлено тем, что он проводит сравнительный анализ рукописей с книгами, относящимися к книжному искусству других культур, например, Ирана, Индии и Османской империи. В заключение в статье освещается научная значимость исследований Франсиса Ришара в раскрытии сложных взаимосвязей между искусством рукописей, литературным наследием и системами культурного покровительства. При этом особо подчеркивается, что его подход может быть эффективно применен в области сравнительного литературоведения, искусствоведения и исторического источниковедения.	Эпоха Шейбанидов; искусство рукописей; Франсис Ришар; сравнительное литературоведение; каллиграфия; миниатюра; символика; методология.

KIRISH

Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan XVI asr Movarounnahr davri Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati tarixida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bu davrda kitob san'ati – qo'lyozma asarlarni ko'chirish, bezash va miniatyura bilan boyitish ishlari – siyosiy hokimiyat uchun madaniy legitimatsiya vositasiga aylangan edi. Biroq, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarda Shayboniylar davri Buxoro maktabi miniatura san'ati ko'pincha Eron Safaviylar davri bilan qiyosan ikkinchi darajali holatda ko'rilgan yoki “chekka” bir fenomen sifatida talqin qilingan. Fransuz olimi Fransis Richard va uning hamkorlari esa bu qarashlarni o'zgartirishga munosib hissa qo'shdilar. Xususan, Richard Shayboniylar davri qo'lyozma san'atini alohida va chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlab, uni Timuridlar an'anasining bevosita davomchisi hamda mustaqil ijodiy maktab sifatida qaradi. Uning Lola Dodxudoyeva bilan hammualliflikda yaratgan “Le Siècle des Shibanides” (“Shayboniylar asri”) nomli fundamental tadqiqoti Shayboniy hukmdorlar davrida kitob san'ati, hokimiyat va qonuniylik o'rtasidagi o'zaro aloqani kompleks yondashuvda ko'rsatib berdi.

ASOSIY QISM

Fransis Richard Shayboniylar davri qo'lyozma san'atini o'rganishda manba tahliliga asoslangan fanlararo (interdisciplinary) yondashuvni qo'llagan. Avvalo, u o'sha davrda yaratilgan nodir qo'lyozmalarni bevosita o'rgandi: turli kutubxonalar va kolleksiyalarga tarqalib ketgan Markaziy Osiyo qo'lyozma kitoblarini aniqlab, ularning kolofon matnlari, sanasi, muallif va kotiblari, hatto kitobdorlari (kutubxonachilari) haqidagi ma'lumotlarni yig'di. Bu yondashuv unga mashhur ingliz olimi B. Robinson tuzgan ro'yxatlar yangilanganini va ko'plab yangi qo'lyozma manbalar ilmiy muomalaga kiritilganini ko'rsatdi. Richard shu tariqa XVI asr Buxoro kitobat muhitida faoliyat ko'rsatgan asosiy xattotlar va musavvirlar repertuarini shakllantirishga harakat qildi (Richard, 2023, 11).

Fransis Richard tadqiqot metodologiyasining asosiy xususiyati – qo'lyozma san'atini tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qilishdir. U oddiy badiiy tahlil bilan

cheklanmasdan, har bir miniatyura va bezakning yaratilish maqsadi va homiysini aniqlashga intildi. Masalan, u qo'lyozmalardagi bag'ishlov yozuvlari va titullarda keltirilgan iboralarni o'qib, ushbu kitob qaysi hukmdor yoki shahzoda uchun mo'ljallangani va uning siyosiy-ma'naviy mazmunini ochib beradi. Xususan, qo'lyozma kitoblarning bosh sahifalariga kiritilgan she'riy matnlarni tadqiq etish orqali Richard musavvir va xattotlarning kitobni "nodir tuhfa" (javohirlar qutisiga qiyos etiladigan) darajasiga ko'tarish niyatini va shu orqali matn muqaddasligini ta'kidlashini ko'rsatdi (Richard, 2023, 176). Bu uslubiy yondashuv miniatyura va xattotlikni faqat san'at asari sifatida emas, balki ideologik va ramziy matn sifatida ham o'qishga imkon yaratadi.

Shuningdek, Richard qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalanadi. U Shayboniylar davri qo'lyozmalarini avvalgi Temuriylar davri va bir vaqtning o'zida yashagan qo'shni sulolalar (Safaviylar, Mo'g'ullar va boshqalar) tajribasi bilan qiyoslab ko'radi. Uning tadqiqotlari davomida aniqlanishicha, Shayboniylar Buxoroda o'z kitobat maktabini yaratishda Temuriylarning Hirot an'anasiga suyanib ish ko'rgan, biroq shu bilan birga, mahalliy sharoit tufayli o'ziga xos uslublarni ham rivojlantirgan. Bu holatni tushuntirish uchun Richard qo'lyozmalar yaratilgan kitobdorlik muhitini o'rganadi: bir nechta musavvir va xattotlarning ijodiy hamkorligi, ish taqsimoti va uslubiy yaxlitligi masalalarini ko'taradi. Misol uchun, u Buxoroda tashkil etilgan xonlik kutubxonasida Hirotan ko'chirib keltirilgan san'atkorlar va mahalliy ijodkorlar birgalikda faoliyat olib borganini tarixiy manbalar asosida ko'rsatadi.

Fransis Richardning tadqiqotlari Shayboniylar davri qo'lyozma san'ati bo'yicha bir qator muhim ilmiy natijalarni yuzaga chiqardi. U Shayboniylar davridagi Buxoro maktabi miniatyuralari avvalgi Temuriylar davri Hirat maktabining mantiqiy davomchisi ekani, ayni vaqtda unda mustaqil ijodiy yechimlar paydo bo'lganini asoslab berdi. Richard ko'rsatishicha, Shayboniy hukmdorlar Boburiylar (Hindiston) yoki Safaviylar (Eron) singari Temuriy merosga emas, balki o'zlarining Chingizxon avlodidan kelib chiqqanlik merosiga ko'proq urg'u berganlar; buni ular buyurtma qilgan qo'lyozma asarlaridagi genealogik va tarixiy

mavzulardan ham bilsa bo‘ladi (Szuppe, 2009, 103). Masalan, Shayboniyxon haqida bitilgan “Shayboniynoma” dostonlarida va Firdavsiy “Shohnoma”larining shu davr nusxalarida Shayboniylar o‘zlarini Chingizxon nasliga bog‘lovchi ramziy sahnalar kiritilganini tadqiqotchilar qayd etgan. Richard rahbarligidagi tadqiqotda ham bunday qo‘lyozmalardagi afsonaviy qahramonlar bilan tarixiy shaxslarni yonma-yon tasvirlash orqali Shayboniylar o‘z siyosiy da‘volarini tasdiqlashga urinishi alohida ta’kidlandi (Richard, 2023, 145).

Richard Shayboniylar davri qo‘lyozmalarida ishlatilgan badiiy uslublar va texnikalarni batafsil tasniflab chiqdi. Uning aniqlashicha, Buxoro miniatyura maktabi o‘z zamonasining eng mashhur musavviri Kamoliddin Behzod va uning izdoshlari uslubiga katta e’tibor bergan – xonlar Behzod an’anasini davom ettirishni ma’naviy meros deb bilishgan. Behzod uslubidagi nafis chizma va kompozitsiyalar Buxoro musavvirlari ijodida mezon bo‘lib xizmat qilgan, natijada ko‘plab miniatyuralar Hirot maktabini yodga soluvchi tarzda yaratilgan (Richard, 2023, 126).

Biroq, Shayboniylar davrida miniatyura san’atida yangicha elementlar ham shakllandi. Richard Buxoro maktabining o‘ziga xosligi sifatida chekka bezaklar va varaqlarning gulzor naqshli chegaralar bilan bezatilishini keltiradi – bu usul orqali sahifa jozibasi oshirilib, asar matni va xattotlik go‘zalligi yanada ajralib turishi ta’minlangan. Xususan, bir necha rangli va oltin suvi bilan bezalgan qog‘ozlarni birlashtirib varaqlar chetini naqshlash (abra va abri qog‘ozlar) usuli Shayboniylar davrida keng qo‘llangan va bu kitobni bezashda yangi nafislik darajasini kasb etgan edi. Richard bu yutuqni sanab, Buxoro maktabining novatorligini qayd etadi (Richard, 2023, 133).

Richard tadqiqotlari Shayboniylar davrida yaratilgan qo‘lyozmalarning mavzuviy repertuarini ham ochib berdi. U o‘nlab qo‘lyozma nusxalarini tahlil qilarkan, shuni payqadiki: miniatyuralar bilan bezatilgan asarlar asosan klassik adabiyot namunalari edi – Jomiy, Hofiz, Sa’diy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy kabi fors adabiyoti darg‘alarining asarlari hamda Navoiyning turkiy doston va g‘azallari (Richard, 2023, 178). Yangi zamon (XVI asr) shoirlari yoki tarixnavislarining

asarlarini ko‘chirish va miniatyuralar bilan bezash holati kam uchraydi. Bu hodisa, Richard fikricha, Shayboniylar madaniy siyosatining bir qismi bo‘lib, ular o‘z xalqi ongini tarbiyalashda Naqshbandiya tariqatining buyuk namoyandalari – Hazrat Jomiy va Alisher Navoiy – merosiga tayanishga intilganlar. Darhaqiqat, manbalarda Abdullaxon II davrida Jomiy va Navoiyning asarlari butun Movarounnahr bo‘ylab keng tarqalib, islomiy ma’rifat va birlik g‘oyalarini singdirgani ta’kidlanadi. Richard o‘z tadqiqotida buni qo‘lyozma manzarasida ham aks ettirib, Shayboniylar davrida yaratilgan go‘zal qo‘lyozmalarning aksariyati aynan tasavvufiy-didaktik poeziyaga bag‘ishlanganini ko‘rsatadi. Bu qo‘lyozmalardagi miniatyuralar ham jangovar sahnalardan ko‘ra ko‘proq ishqiy-ma’rifiy mavzularni, bazm va ziyofatlar, musiqiy va sufiy mavzularni aks ettirgani kuzatiladi. Demak, Shayboniylar davri kitob san’atida madaniy-siyosiy mafkura aks-moyil bo‘lib, u orqali xonlar o‘zlarini ilm-fan va tasavvuf homiylari sifatida ko‘rsatishga intilganlar (Richard, 2023, 184).

Tadqiqotchi Shayboniylar davri qo‘lyozmalarini o‘rganib, bu jarayonda ishtirok etgan san’atkorlarning hamkorlik uslubini yoritdi. Ko‘plab qo‘lyozmalarning bezak va illyustratsiyalari bir nechta musavvir tomonidan birgalikda ishlangani bois, ayrim miniatyuralarni aniq mualliflikka ajratish qiyinligi haqida u yozadi. Buning sababi sifatida Richard kitobat ustaxonalaridagi mehnat taqsimotini keltiradi – bir qo‘lyozma ustida bosh xattot (kotib), bir necha musavvir va zarhalchi (muzahhib) hamkorlik qilgan, natijada uslubiy jihatdan bir-biriga yaqin, ammo mayda tafsilotlarda farqlanuvchi asarlar yaratilgan (Richard, 2023, 191). U masalaning shu jihatiga e’tibor qaratib, kitobat jarayonining ichki dinamikasini tushuntirishga harakat qiladi. Natijada, olim xulosasiga ko‘ra, Shayboniylar davri musavvirlari chegaralangan mavzular doirasida (bir-biriga o‘xshash sahnalarni takror tasvirlash orqali) mislsiz ijodkorlik namunasini ko‘rsatganlar: ular mavjud timsollarni beadoq kombinatsiyalarda qayta-qayta ishlatib, har safar yangicha va original kompozitsiyalar yaratishga erishganlar. Bu, albatta, buyurtmachi – xon va amirlar – estetik didi va talablari bilan bog‘liq bo‘lib, Richard ta’kidlaganidek, Shayboniy hukmdorlari kitob san’atidan o‘z siyosiy maqsadlari yo‘lida faol foydalanishgan (Richard, 2023, 176).

Shayboniylar davri qo'lyozma san'ati bo'yicha F. Richard tomonidan qo'llangan tadqiqot metodologiyasi va olingan natijalar ilmiy hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otdi hamda bir qancha yangi nuqtai nazarlarni shakllantirishga xizmat qildi. Avvalo, F. Richardning kontekstual yondashuvi – ya'ni qo'lyozmalarni tarixiy, siyosiy va madaniy vaziyat bilan bog'liq holda o'rganishi – mazkur sohada ilgari kuzatilgan bo'shliqni to'ldirdi. Oldingi tadqiqotlarda Shayboniylar davri san'ati ko'pincha boshqa yirik imperiyalar soyasida ko'rilgan bo'lsa, Richard ushbu san'atni mustaqil tadqiq obyekti sifatida markazga olib chiqdi. Natijada, Shayboniylarning kitob san'ati "ikkinchi darajali" emas, balki o'ziga xos rivoj yo'liga ega bo'lgan alohida maktab ekani isbotlandi. Bu yondashuv Markaziy Osiyo madaniy merosini baholashda yangi tarixiy burilish bo'lib, uni periferiyadan markazga qo'yish bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, F. Richardning metodologiyasi qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham novatorlikka ega. U qo'lyozma san'ati tahlilini adabiy manbalar tahlili bilan uyg'unlashtirib, matn va tasvirni birgalikda "o'qish" amaliyotini namoyish etdi. Bu uslub orqali, masalan, bir miniatyuradagi kalligrafik yozuvlarni va tasviriy detallarni o'zaro bog'liq ma'no qatlamlari sifatida tushunish imkoniyati tug'ildi. Natijada, qo'lyozma kitob matni (she'r yoki matn) bilan uni bezagan miniatyura o'rtasida qanday dialog borligi yuzaga chiqdi. Bu, o'z navbatida, adabiyot va san'at sintezini o'rganishda muhim uslubiy yangilikdir. Masalan, F. Richard ko'rsatganidek, Jomiy yoki Navoiyning g'azallari bitilgan sahifalar ular haqida yozilgan she'riy parcha yoki hikmatli baytlar bilan naqshlangan – bunday holatlar matnning madhiya yoki tanqidiy talqinini san'at vositasida ifodalashga xizmat qilgan.

F. Richardning kontekstual yondashuvi Shayboniylar davridagi madaniy-siyosiy ramzlarni anglashda ham katta yordam berdi. Uning tadqiqotlari asosida ma'lum bo'ldiki, Shayboniy hukmdorlar kitob san'ati orqali o'z legitimatsiyalarini mustahkamlashga intilganlar. Masalan, Muhammad Shayboniyxon o'zini ilm-fan homiysi sifatida ko'rsatib, Buxoroni "yangi Hirot"ga aylantirish siyosatini olib borgan bo'lsa, Abdullaxon II hatto xalifa unvonini olishga da'vogar bo'lganini bir

qo‘lyozma kolofonidagi yozuvdan bilish mumkin. Bu fakt diniy-siyosiy ramzlarning xattotlikda namoyon bo‘lishiga yorqin misoldir. Xuddi shuningdek, Shayboniylar davri miniatyuralarida ko‘pincha Naqshbandiyaga oid ramziy sahnalar (masalan, darvishlar raqsi, tasavvuf majlislari tasviri) uchraydi, bu esa Naqshbandiya tariqatining jamiyatdagi o‘rnini vizual tarzda aks ettirishga xizmat qilgan. Richard ushbu jihatlarni qayd etib, san’at asarini tarixiy manzara bilan bog‘lashda o‘ziga xos tahlil yo‘lini yaratdi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, Richard metodologiyasining o‘ziga xosligi jahon ilmiy doiralarida ham e’tirof etildi. Masalan, tadqiqotchi J. K. Comstock-Skipp Markaziy Osiyo qo‘lyozma san’ati tarixiga bag‘ishlangan maqolasida so‘nggi yillardagi ishlar (jumladan, Richard va boshqalarning tadqiqotlari) tufayli Shayboniylar davri endi Safaviy Eron bilan qarama-qarshi qo‘yiladigan periferik mavzu emas, balki alohida diqqat markazidagi obyekt sifatida o‘rganilayotganini qayd etadi (Comstock-Skipp, 2023, 5). U hatto Shayboniylar san’ati misolida XVI asr musulmon dunyosidagi sunniy-shi’iy raqobati va turkiy-forsiy madaniy tutashuv masalalarini yoritish mumkinligini ta’kidlaydi. Bu fikrlar F. Richard boshlab bergan kontekstual va qiyosiy yondashuvning davomchilari paydo bo‘lganini anglatadi. Chunonchi, bugungi kunda Shayboniylar davri san’ati faqat “Buxoro maktabi” degan tor doirada emas, balki butun Eronning kitob san’ati tarixi kontekstida, qo‘shni imperiyalar bilan o‘zaro aloqadorlikda ko‘rilmoqda.

XULOSA

F. Richardning Shayboniylar davri qo‘lyozma san’ati bo‘yicha tadqiqot metodologiyasi mazmunan boy va innovatsion qimmatga ega. U qo‘lyozma kitoblarni o‘rganishda tarix, adabiyot va san’atshunoslikni uyg‘unlashtirgan holda, sohalararo yondashuv namunasini ko‘rsatdi. Richardning kontekstual metodologiyasi yordamida Shayboniylar davrida kitob san’atining hukmdorlar uchun nechog‘li siyosiy-ma’naviy ahamiyat kasb etgani aniqlandi – xattotlik va miniatyura vositasida ular o‘z hukmronlik g‘oyalarini targ‘ib qilganlar, ilmiy-adabiy merosga ega chiquvchi sifatida o‘z qiyofalarini mustahkamlashga intilganlar.

Richard tadqiqoti bu jarayonni konkret qo'lyozmalar misolida isbotlab, san'at asari ichiga yashiringan mazmun qatlamlarini ochib berdi.

Maqolada ko'rib chiqilganidek, Richardning asosiy yutug'i shundaki, u Shayboniylar davri qo'lyozmalarini faqat tasviriy san'at nuqtayi nazaridangina emas, balki ularning yaratilish sharoiti, buyurtmachi homiylari, ulardagi matn va obrazlarning ramziy ma'nosi bilan birgalikda tahlil qildi. Bu yondashuv natijasida Markaziy Osiyo kitobat madaniyatining mazkur davri yanada to'laroq yoritildi. Richard va hamkasblari Shayboniylar saltanatining madaniy siyosatini qo'lyozma san'ati prizmasida o'rganib, ularning tarixiy obro'-e'tibor qurilishidagi san'at rolini ko'rsatdilar.

F.Richardning metodologiyasi bugungi kunda qator izlanishlarda qo'llanilmoqda va rivojlantirilmoqda. U boshlab bergan an'ana davom etib, yangi tadqiqotchilar Shayboniylar davri qo'lyozmalarini Safaviylar, Mo'g'ullar va boshqa sulolalar san'ati bilan qiyosiy o'rganishga kirishdilar. Bunda F. Richardning ishlari muhim bir poydevor vazifasini o'tamoqda. F. Richardning kontekstual va qiyosiy metodologiyasi nafaqat Shayboniylar davri madaniy merosini anglashga xizmat qildi, balki umuman olganda, adabiy yodgorliklarni ularning vizual konteksti bilan birgalikda o'rganishning naqadar samarali ekanini isbotlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Richard F., Dodkhudoeva L. Le siècle des Shibanides en Asie Centrale: Pouvoir, légitimité et arts du livre sous les khans shibanides (906–1007/1500–1599). – Rome: Istituto per l'Oriente C. A. Nallino, 2023. – 384 p.
2. Comstock-Skipp J. The 'Iran' Curtain: The historiography of Abu'l-Khairid (Shaybanid) arts of the book and the "Bukhara School" during the Cold War // Journal of Art Historiography. – 2023. – № 28. – P. 1–26.
3. Comstock-Skipp J. Lording over the Centre of Asia: Manuscript Arts of the Abu'l-Khayrid (Uzbek) Khans // IIAS The Newsletter. – 2023. – № 95 (Summer). – P. 40–41.

4. Parodi L. E., Wannell B. The Earliest Datable Mughal Painting [Electronic resource]. – Access mode: <https://asianart.com/articles/mughal/index.html> (date of access: 07.08.2025).
5. Dodkhudoeva L. N. The Neochinghisids on the Throne of Transoxiana: Piety and Pragmatism // Richard F., Dodkhudoeva L. N. *Le siècle des Shibanides en Asie Centrale*. – Rome: IPOCAN, 2023. – P. 1–17.
6. Schmitz B. Bukhara VI. The Bukharan School of Miniature Painting // *Encyclopædia Iranica*. – 2000. – Vol. IV, Fasc. 5. – P. 456–462. – Access mode: <https://iranicaonline.org/articles/bukhara-vi> (date of access: 07.08.2025).
7. McChesney R. D. Review: Maria Szuppe. *Entre Timourides, Uzbeks et Safavides...* // *Bulletin of the School of Oriental and African Studies*. – 1995. – Vol. 58, № 2. – P. 370–372. – DOI: 10.1017/S0041977X00011022.
8. Szuppe M. *Patrimoine manuscrit et vie intellectuelle de l'Asie Centrale islamique*. – Aix-en-Provence: Édisud, 1999. – 232 p. – (Cahiers d'Asie Centrale; vol. 7) // *Abstracta Iranica* [Electronic resource]. – 2001. – Access mode: <https://journals.openedition.org/abstractairanica/> (date of access: 07.08.2025).
9. Szuppe M. *Écrit et culture en Asie Centrale et dans le monde turco-iranien, Xe–XIXe siècles = Writing and Culture in Central Asia and the Turko-Iranian World, 10th–19th Centuries*. – Paris, 2009.
10. Szuppe M. *Manuel de codicologie des manuscrits en écriture arabe / avec la collab. de A. Berthier, M.-G. Guesdon, B. Guineau, F. Richard, A. Vernay-Nouri, J. Vezin, M. I. Waley; préface par J.-P. Angremy*. – Paris: Bibliothèque nationale de France. // *Abstracta Iranica* [Electronic resource]. – Access mode: <https://journals.openedition.org/abstractairanica/> (date of access: 07.08.2025).
11. Szuppe M. *Circulation des lettrés et cercles littéraires. Entre Asie Centrale, Iran et Inde du Nord (XVe–XVIIIe siècle)* // *Annales. Histoire, Sciences Sociales*. – Cambridge: CUP. – Access mode: <https://www.cambridge.org/> (date of access: 07.08.2025).

12. Szuppe M. Lettrés, patrons, libraires. L'apport des recueils biographiques sur le rôle du livre en Asie Centrale aux XVIe et XVIIe siècles // Cahiers d'Asie Centrale. – 1999.

REFERENCES

1. Richard, F., & Dodkhudoeva, L. (2023). Le siècle des Shibanides en Asie Centrale: Pouvoir, légitimité et arts du livre sous les khans shibanides (906–1007/1500–1599). Rome: Istituto per l'Oriente C. A. Nallino.
2. Comstock-Skipp, J. (2023). The 'Iran' curtain: The historiography of Abu'l-Khairid (Shaybanid) arts of the book and the "Bukhara School" during the Cold War. *Journal of Art Historiography*, 28, 1–26.
3. Comstock-Skipp, J. (2023). Lording over the Centre of Asia: Manuscript arts of the Abu'l-Khayrid (Uzbek) Khans. *IIAS The Newsletter*, 95 (Summer), 40–41.
4. Parodi, L. E., & Wannell, B. (n.d.). The earliest datable Mughal painting. *Asianart.com*. Retrieved from <https://www.asianart.com>
5. Dodkhudoeva, L. N. (2023). The Neochinghisids on the throne of Transoxiana: Piety and pragmatism. In F. Richard & L. N. Dodkhudoeva (Eds.), *Le siècle des Shibanides en Asie Centrale* (pp. 1–17). Rome: Istituto per l'Oriente C. A. Nallino.
6. Schmitz, B. (2000). Bukhara VI. The Bukharan school of miniature painting. In *Encyclopædia Iranica* (Vol. IV, Fasc. 5, pp. 456–462). Retrieved from <https://iranicaonline.org>
7. McChesney, R. D. (1995). Review of Maria Szuppe: *Entre Timourides, Uzbeks et Safavides: Questions d'histoire politique et sociale de Hérat dans la première moitié du XVIe siècle* (Studia Iranica, Cahier 12). *Bulletin of the School of Oriental and African Studies*, 58(2), 370–372. <https://doi.org/10.1017/S0041977X00011022>

8. Szuppe, M. (2001). Patrimoine manuscrit et vie intellectuelle de l'Asie Centrale islamique. Aix-en-Provence: Édisud. Abstracta Iranica, 22. OpenEdition.
9. Szuppe, M. (2009). Écrit et culture en Asie centrale et dans le monde turco-iranien, Xe–XIXe siècles = Writing and culture in Central Asia and the Turko-Iranian world, 10th–19th centuries.
10. Szuppe, M. (n.d.). Manuel de codicologie des manuscrits en écriture arabe. In A. Berthier, M.-G. Guesdon, B. Guineau, F. Richard, A. Vernay-Nouri, J. Vezin, M. I. Waley (Contrib.), Preface by J.-P. Angremy. Abstracta Iranica. OpenEdition.
11. Szuppe, M. (n.d.). Circulation des lettrés et cercles littéraires: Entre Asie Centrale, Iran et Inde du Nord (XVe–XVIIIe siècle). Annales. Histoire, Sciences Sociales. Cambridge University Press.
12. Szuppe, M. (1999). Lettrés, patrons, libraires: L'apport des recueils biographiques sur le rôle du livre en Asie centrale aux XVIe et XVIIe siècles. Cahiers d'Asie Centrale, 7.

ILOVA

**F. Richardning “Le Siècle des Shibanides” monografiyasidan olingan
qo‘lyozma manbalar namunasi.**




Fig. 20 : Marge ornée spécifique de Bukhara au XVI^{ème} siècle : page calligraphiée de 'Alī al-Husaynī al-Kātib, Bukhara (*balada-i fākhirā*) 944/1537-8, Paris U.C.A.D. (déposé au Département des Arts de l'islam du musée du Louvre) AD 27658/2 verso.

Richard, F., & Dodkhudoeva, L. (2023). *Le siècle des Shibanides en Asie Centrale: Pouvoir, légitimité et arts du livre sous les khans shibanides (906-1007/1500-1599)*. Rome: Istituto per l'Oriente C. A. Nallino. – P. 217

Bu sahifa Buxoro maktabiga mansub bo‘lib, XVI asrga oid qo‘lyozma sahifasidir. Undagi yozuv Ali al-Husayni al-Kātib (Алий ал-Хусайний ал-Котиб) tomonidan xattotlik san’atida yozilgan. Qo‘lyozma nomi: "Balada-i fākhirā", hijriy 944 yilga (milodiy 1537–1538) tegishli.

Xat nusxasi: Nasta’liq yozuvi

Bezakarlar: Sahifaning atrofi oltin va yashil bo‘yoqlar bilan bezatilgan, unda an’anaviy islomiy arabesk naqshlar, stilize qilingan gul va barg elementlari

ishlatilgan. Yashil tusdagi "ع" va "ك" shaklidagi arab harflari dekorativ element sifatida joylashtirilgan.

Manba: Ushbu sahifa hozirda Parijdagi U.C.A.D. (Union Centrale des Arts Décoratifs) fondida saqlanmoqda va Luvr muzeyining Islom san'ati bo'limiga topshirilgan (inv. raqami: AD 27658/2 verso).



Fig. 24 : L'importance des bibliothèques dans l'empire shibanide : un manuscrit déposé en *waqf* au XVI^{ème} siècle dans un sanctuaire d'Asie centrale avec dans les marges des cachets attestant de ce *waqf* ; il s'agit d'un *Sharh al-mutawwāl* d'al-Taftazānī copié en Asie centrale dans la seconde moitié du XV^{ème} siècle, avec de nombreuses gloses marginales, ms. ARA 719 de la BULAC (Paris).

Richard, F., & Dodkhudoeva, L. (2023). *Le siècle des Shibanides en Asie Centrale: Pouvoir, légitimité et arts du livre sous les khans shibanides (906-1007/1500-1599)*. Rome: Istituto per l'Oriente C. A. Nallino. – P. 220

Fransuzcha matn tarjimasi (sarlavha tagidagi izoh):

“Shayboniylar imperiyasida kutubxonalarning ahamiyati: XVI asrda Markaziy Osiyodagi muqaddas joyda waqf (vaqf) tariqasida saqlovga topshirilgan qo‘lyozma. Uning chetlarida bu waqf holatini tasdiqlovchi muhrlar mavjud. Bu qo‘lyozma Taftazoniyning Sharh al-mutavval asariga tegishli bo‘lib, XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ko‘chirilgan va uning chetlarida juda ko‘p glossalar (izohlar) bor. Qo‘lyozma: ms. ARA 719, BULAC (Parij) fondida saqlanadi.”

Qo'lyozmaning mazmuni:

Asar nomi: Sharh al-mutawwal — bu asar islom falsafasi va balogʻat ilmi (rhetoric)ga oid mashhur ilmiy risola boʻlib, u Saʼd al-Din al-Taftazaniy tomonidan yozilgan. Koʻchirish joyi va davri: XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda koʻchirilgan. Kutubxona va waqf holati: Qoʻlyozma muqaddas joyda (ehtimol ziyoratgohda yoki madrasada) waqf sifatida saqlangan. Chetlaridagi muhrlar bu holatni tasdiqlaydi. Har ikki sahifada juda koʻp chekka yozuvlar (marginaliyalar) mavjud boʻlib, bu asar ustida chuqur oʻrganishlar, talqinlar yoki talabalar tomonidan qoʻshilgan izohlar mavjudligidan dalolat beradi.